




Jizzax viloyati statistika boshqarmasi

2018 yilning yanvar-iyul oylarida QURILISH ISHLARI


Joriy yilning yanvar - iyul oylarida Jizzax viloyatida jami **765,2 mlrd.** so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,4** foizni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **16,3 mlrd.so'm** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,1** foizni hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **89,0** foizni tashkil etdi.

Kichik korhona va tshkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **57,8** foizi yoki **442,2 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,0** foizni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **40,1** foiz yoki **306,6 mlrd.so'm** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **96,8** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan foizda)




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi 2,1 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 57,8 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa 40,1 foizga qurilish ishlari

bajarildi.

Jizzax shahrida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi eng katta bo'ldi - 41,9 foizni. Mazkur hududda yirik tashkilotlarning ulushi 1,6 foiz va norasmiy sektorning ulushi 8,5 foizni tashkil etdi.

Hududlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nishatan foizda)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Mirzacho'l hamda G'allaorol tumanlarida kuzatildi.


Mirzacho'l tumanida yakka tartibda turar joy qurilishining jadal borishi tufayli o'sish surati o'tgan yilning mos

davriga nisbatan 113,7 foiz bo'lishi ta'minlandi.

G'allaorol tumanidagi yuqori o'sish surati, yani 108,8 foiz turar joy uylar qurilishi, va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so'm)

jami qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi **qurilish loyihalarini** ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,5 foizni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 foiz punktga ko'paydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda 14,4 foizni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 foiz punktga kamaydi, mahsus qurilish ishlari hissasiga esa 6,1 foizga to'g'ri keldi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)

